



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI TOSHKENT
SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI**

**TOSHKENT SHAHRIDA
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**


***Dastlabki ma'lumot
2024 - yil yanvar- mart***



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 71-203-88-20(21)***

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-yanvar- aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 13 808 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 284 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 13 524 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-mart oylarida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi 18 980,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 110,6 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 7 656,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 114,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 11 324,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 564,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 115,2 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- mart oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	18 980,4	110,6
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	1 771,9	111,2
Bektemir	688,7	110,5
Yunusobod	2 186,6	113,2
Mirzo Ulug'bek	1 440,7	113,9
Mirobod	1 365,1	105,3
Shayxontohur	2 092,3	114,3
Olmazor	1 517,9	108,0
Sirg'ali	1 011,1	110,8
Yakkasaroy	1 820,3	105,5
Yashnobod	1 722,5	118,2
Yangihayot	251,1	121,7
Chilonzor	3 112,1	106,9


2024- yilning yanvar-mart oylarida 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan Toshkent shahrining Yangihayot (121,7 %), Yashnobod (118,2 %) va Shayxontohur (114,3 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-mart)




So'nggi 5 yillikda (2020–2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020- yilning mos davriga nisbatan 115,3 % ni tashkil qildi.

2024- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar- mart oylarida o'sish sur'ati **110,6 %** ni tashkil qildi.




Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani 16,4 % bilan 3 212,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Yangihayot tumani 1,3 % bilan 251,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm







Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo Tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar- mart oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 11 324,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 8,5 % ga oshdi. Toshkent shahri miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 59,7 % ni tashkil etdi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar- mart oylariga nisbatan 14,0 % ga o'sdi va 7 656,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 40,3 % ulushiga to'g'ri keldi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Chilonzor (18,2 %), Uchtepa (12,7 %) va Yunusobod (11,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 40,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chilonzor (13,7%), Shayxontohur (12,7 %), Yashnobod (11,3%), Yunusobod (11,3%) tumanlarida kuzatildi.

40,3 %



59,7 %



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*

Toshkent shahri

6 223,9

Yangiyahoyot

1 424,9

Uchtepa

5 910,3

Chilonzor

11 300,3

Bektemir

11 290,0

Yunusobod

5 797,0

Mirzo Ulug'bek

4 343,4

Mirobod

8 951,7

Shayxontohur

5 718,4

Olmazor

3 745,2

Sirg'ali

5 982,8

Yakkasaroy


13 574,4

Yashnobod

5 712,9

2024- yilning yanvar- mart oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 6 223,9 ming. so'mni (2023- yilning yanvar- mart oylariga nisbatan 107,6 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Yakkasaroy (13 574,4 ming. so'm), Chilonzor (11 300,3 ming. so'm) va Bektemir (11 290,0 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar- mart), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalaridan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


	Jami, mlrd. so'm	2023 - yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	564,5	115,2
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	35,1	78,4
Bektemir	128,9	159,3
Yunusobod	90,7	143,2
Mirzo Ulug'bek	78,0	158,3
Mirobod	9,3	37,3
Shayxontohur	78,3	172,0
Olmazor	19,8	95,7
Sirg'ali	16,2	80,0
Yakkasaroy	11,3	33,6
Yashnobod	52,6	85,6
Yangihayot	-	-
Chilonzor	44,3	106,4

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.


Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari

(2024- yil yanvar- mart)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm












(2024- yil yanvar-mart)



Toshkent shahri bo'yicha 2024- yilning yanvar-mart oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 564,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 115,2 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 537,2 mlrd.so'mni (115,8%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylan-masi hajmi 27,3 mlrd so'mni (101,0%) tashkil etdi .













2024-yilning yanvar-mart oylarida Toshkent shahrining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 537,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (27,3 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>273,2 mlrd. so'm</p>  <p>48,4 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>61,5 mlrd. so'm</p>  <p>10,9 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>30,8 mlrd. so'm</p>  <p>5,5 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>39,9 mlrd. so'm</p>  <p>7,1%</p>	<p>Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>15,8 mlrd. so'm</p>  <p>2,8 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>16,9 mlrd. so'm</p>  <p>3,0 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>33,4 mlrd. so'm</p>  <p>5,9 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>35,0 mlrd. so'm</p>  <p>6,2 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil vem – xashak</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,02 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>16,4 mlrd. so'm</p>  <p>2,9 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>11,8 mlrd. so'm</p>  <p>2,1 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>2,4 mlrd. so'm</p> <p>0,4 %</p>

2024- yilning yanvar-mart oylarida, Toshkent shahrining Bektemir va Olmazor tuman hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 27 278,7 mln. so'mni (101,0%) tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 21 898,7 mln. so'm, qo'y va echkilar – 3 779,0 mln. so'mni, otlar – 1 531,3 mln. so'mni, parrandalar – 69,7 mln. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>10 209,2 mln. so'm</p>  <p>1,8 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>4 548,9 mln. so'm</p>  <p>0,8 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>7140,6 mln. so'm</p>  <p>1,3 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>3379,3 mln. so'm</p>  <p>0,6 %</p>	<p>Otlar</p> <p>1531,3 mln. so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>399,7 mln. so'm</p>  <p>0,1%</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>15,6 mln. so'm</p>  <p>0,003 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>9,6 mln. so'm</p>  <p>0,002 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>25,4 mln. so'm</p>  <p>0,005 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>19,1 mln. so'm</p>  <p>0,003 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 4 861 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 76 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 785 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	1 926,1	114,1
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	53,5	123,7
Bektemir	40,5	120,9
Yunusobod	266,2	119,9
Mirzo Ulug'bek	186,8	107,3
Mirobod	136,5	103,3
Shayxontohur	534,7	122,9
Olmazor	89,9	116,9
Sirg'ali	145,0	101,9
Yakkasaroy	161,7	112,3
Yashnobod	135,8	115,1
Yangihayot	29,3	110,4
Chilonzor	146,2	103,6

2024- yilning yanvar-mart oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 1 926,1 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 114,1 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 56,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Toshkent shahri	6 892,4	100,0
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	280,0	4,1
Bektemir	449,4	6,5
Yunusobod	450,5	6,5
Mirzo Ulug'bek	392,2	5,7
Mirobod	429,2	6,2
Shayxontohur	714,6	10,4
Olmazor	65,9	1,0
Sirg'ali	2 014,7	29,2
Yakkasaroy	657,4	9,5
Yashnobod	512,6	7,4
Yangihayot	442,5	6,4
Chilonzor	483,3	7,0


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Sirg'ali (2 014,7 mlrd. so'm), Shayxontohur (714,6 mlrd. so'm) va Yakkasaroy (657,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-mart oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 6 892,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23,0 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 2 699,8 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 118,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 4 192,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 126,4 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.



Toshkent shahari bo'yicha 2024- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 34 225,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 12,3 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 22 104,1 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 108,6 % ga to'g'ri keldi. Toshkent shaharida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 64,6 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- yanvar-aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 17 457 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 224 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 17 233 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Bektemir (148,5 %), Yangihayot (142,2 %) va Yunusobod (120,0 %) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahri tumanlar:	34 225,6	112,3
Uchtepa	2 125,5	112,6
Bektemir	530,4	148,5
Yunusobod	3 264,6	120,0
Mirzo Ulug'bek	2 697,1	108,4
Mirobod	3 923,6	115,3
Shayxontohur	1 929,6	113,3
Olmazor	5 450,2	110,6
Sirg'ali	1 445,7	108,5
Yakkasaroy	4 478,2	107,0
Yashnobod	4 211,4	114,1
Yangihayot	349,5	142,2
Chilonzor	3 820,0	108,3